

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ABDULLA ORIPOV IJODIDA ARUZ VAZNI

Javohir Ibragimov,

*Ajiniyoz nomidagi NDPI o‘zbek tili va
adabiyoti yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining zabardast vakili Abdulla Oripov va uning aruz vazniga qo‘shtgan salmoqli hissasi xususida so‘z yuritiladi. Aruz vaznida yaratgan bir qancha she’rlari tahlilga tortiladi, ularning sharhi bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: she’riyat, aruz o‘lchovi, g‘azal, barmoq vazni, qofiya, radif, turoq, ohangdorlik.

Аннотация. В данной статье рассказывается о выдающемся представителе узбекской литературы Абдулле Орипове и его значительном вкладе в Аруз. Проанализирован ряд стихотворений, созданных Арузом за этот год, и представлены их комментарии.

Ключевые слова: поэзия, мера аруз, газель, вес пальца, рифма, радиф, турок, мелодичность.

Annotation. This article talks about the outstanding representative of Uzbek literature, Abdulla Oripov, and his significant contribution to Aruz. A number of poems created by Aruz in the year are analyzed and their comments are presented.

Key words: poetry, aruz measure, ghazal, finger weight, rhyme, radif, turoq, melodiousness.

O‘zbek adabiyotimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, endigina kurtak yoya boshlagan she’riyatimizni jahon jamiyatiga tanita olgan, o‘z she’rlari bilan sho‘rolarning qudratli mafkurasi siquvi ostida qolgan yuraklarga sharaf, g‘urur bag‘ishlay olgan shaxslardan biri sifatida o‘zbek xalqining zabardast vakillaridan biri qalami o‘tkir adib, yuksak salohiyat sohibi Abdulla Oripovni bemalol e’tirof etishimiz mumkin. O‘z Vataniga bo‘lgan muhabbbati, xalqining tinch va omon ekanligi shoirni yanada ko‘proq ishlashga, ijod qilishga undadi. Zero, adabiyotshunoslar ta’biri bilan aytganda, donishmand shoir hamisha Vatan, millat, ma’naviyat masalalariga alohida e’tibor berar ekan insonni Vatanni sevishga o‘rgata oldi. Ilk bor buni asrimizning birinchi choragida Cho‘lpon amalga oshirgan bo‘lsa, ikkinchi marta bunday mas’uliyatli ish 60-yillarga kelib Abdulla Oripov zimmasiga tushdi” [2.113]. Darhaqiqat, Abdulla Oripov lirik turning turli janrlari va o‘lchovlarida ijod qilgan. Nafaqat barmoq vaznida, balki Navoiydan meros qolgan g‘azal janri va aruz o‘lchovlarida ham takrorlanmas go‘zal satrlar bitgan. Shoir bu borada bergen bir intervyusida: “Ma’lum bir ko‘nikma, san’at tarbiyasini olib, bolalikdan aruzni egallash mumkin. Yosh bolani pianino chalishga o‘rgatganday, aruzga ham o‘rgatish mumkin. Lekin uning qalbini, tafakkuri, idrokini o‘rgatish – qiyin masala. Buni Shayxzodalar juda yaxshi bilgan, lekin uning ko‘chasidan o‘tmagani uchun yozmagan. Shunga qaramay, Navoiy g‘azallarini u kishiday

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

tushunadigani yo‘q” – deya she’riyat va aruz o‘lchovi haqida fikrlarini aytib o‘tadi va o‘zining g‘azallaridan misollar keltiradi [1.13].

Ishqiy mavzuda bitilgan an’ anaviy 7 baytdan iborat bo‘lgan bu g‘azal aruzning ramali musammani mahzuf bahrida yozilgan.

Sochlaring yoy//may turib, tush//gan qorong‘u// tun emas.

foilotun foilotun foilotun foilun
— V — — / — V — — / — V — — / — V —

Tishlaringni// ko‘rmayin tong// ham oqargan// kun emas,

foilotun foilotun foilotun foilun
— V — — / — V — — / — V — — / — V —

Mazkur g‘azalning qofiyalanish tartibi ham o‘ziga xos bo‘lib, kun, tun, maftun, mammun, Majnun, mahzun, Jayhun, dilkun kabi so‘zlar ohangdorlikni hosil qilishda muhim rol o‘ynagan. G‘azalda qo‘llangan radif “emas” so‘zi bo‘lib uning qofiyadan keyin takrorlanishini musiqiylikni kuchaytirgan. Sof o‘zbekona ruhda bitilgan bu g‘azal so‘zlarning tushunarligi, hozirgi zamon tilida va ravon uslubi bilan o‘quvchini tezda o‘ziga rom qiladi.

“Abdulla Oripov mumtoz she’riyatimizning shakl va janrlarning o‘ziga xos rang-barangligiga alohida ahamiyat berdi va samarador an’analar izidan borib, bir qancha muvaffaqiyatli asarlar yaratdi. Uning namunasi sifatida san’atlarga boy g‘azallaridir” – deya adabiyotshunos Sanjar Sodiq o‘z fikrlarini ochiq bayon etadi [4.609]. Abdulla Oripov Cho‘lponning “Qalandar ishq” g‘azalini shunday ta’riflaydi: “O‘zining g‘oyalarini “Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku”, deb faqat Cho‘lpon ayta olardi. Cho‘lpon ham yulduz. Oktyabr inqilobi qo‘ymadi chaqnashiga. Botib ketdi. U yoqqa sho‘ng‘ib. Barmoqda yoza boshlasa ham, aruzni hamma joyda qo‘llagan. Barmoqdagi urinishlarida ham, quyma ohangdorlikda ham aruzga rioya qilgan. Vaznlaridagi turoqlarni bo‘lsangiz, xuddi aruzning turoqlari kelib chiqadi. Uni boshqa tilga tarjima qilib bo‘lmaydi. “Foilotun”ga tushmaydi uning tarjimasi. Men o‘zim shunga “qadam vazni” deb nom qo‘yib olganman. “Ayol” she’rimni oyoq takti bilan vaznga solib, yurib yozganman” – deydi Abdulla Oripov [3.86].

Davr nuqtayi nazaridan olib qaraydigan bo‘lsak, hozirgi tilda aruz vaznida yartilgan she’rlarning soni va ko‘lam doirasining kichikligi ijodkorni to‘xtatib qo‘ymasdan hamisha oldinga va bu boradagi bilimlarni yanda mustahkamlashga xizmat qilgan. O‘zbek she’r tuzilishining asosini tashkil etuvchi barmoq va aruz adib ijodida qo‘shilib ham va yakkalanib ham qolmagan. Uning she’rlarida alohida olam mavjud bo‘lsa, g‘azallarida o‘sha zamon muhiti sezilib turadi. Abdulla Oripov ijodi bu ikki jabhalarning birikuvini yanada ochib berdi. G‘azallaridagi jumlalarning

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

hozirgi kun doirasidagi so‘zlardan iborat ekanligi uni tahlil qiluvchi va kitobxonni bir zum bo‘lsada o‘yga tortmaydi. Balki ijodkorning o‘quvchilarga yetkazmoqchi bo‘lgan ma’no ko‘lami ochiq yetkazib beriladi. Qadimdan shakllangan aruz tizimini Abdulla Oripov o‘zi takidlaganidek, sof holda saqlashga harakat qilgan va bu borada ham barakali ijod qila olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Sharq yulduzi” jurnali. – Toshkent, 2015. 13-bet.
2. Qo‘shtonov M., Suvon Meli. Abdulla Oripov. – Toshkent, 2000. – B. 113.
3. Filologiya masalalari, 2002, 1-2-son, 86-bet.
4. Sodiq S. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 609 b..